

SUDLANGANLIKNING HUQUQIY AHAMIYATI

Raximbayeva Munira Azad qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sudlanganlik tushunchasi, qo'llanilishi, vujudga kelish asoslari, sudlanganlik holatining tugallanishi va sudlanganlikning olib tashlanishining qonuniy asoslari ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sudlanganlik, jinoyat, ijtimoiy xavfli qilmish, xavfli va o'ta xavfli retsivist, mahkum.*

LEGAL SIGNIFICANCE OF CONVICTION

Abstract: *This article explains the concept of criminal record, its application, the grounds for its creation, the legal grounds for the completion of a criminal record and the removal of a criminal record.*

Key words: *Conviction, crime, socially dangerous act, dangerous and extremely dangerous recidivist, convict.*

ЮРИДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОСУЖДЕНИЯ

Абстрактный: *В данной статье раскрывается понятие судимости, ее применение, основания ее возникновения, правовые основания пополнения судимости и снятия судимости.*

Ключевые слова: *Судимость, преступление, общественно опасное деяние, опасный и особо опасный рецидивист, осужденный.*

Har bir jinoyat sodir etgan shaxs, albatta, jinoiy javobgarlikka tortiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasiga ko'ra, jinoiy javobgarlik - jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir. Shunday qilib, qonun sudlanganlikni faqat shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinish fakti bilan baholaydi.

Shaxs Jinoyat Kodeksining Maxsus qismi moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda aybdor, deb topilib, ayblovluk hukmi e'lon qilingandan so'ng sudlangan, deb hisoblanadi. Ammo hukm qilinishning har qanday fakti ham sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi.

Hukm O'zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladi. Hukm qonuniy, adolatli, asosli bo'lishi shart. Hukm qonunning barcha talablariga amal qilgan holda va qonun asosida chiqarilgan bo'lsa, qonuniy deb e'tirof etiladi.

Hukm ishning haqiqiy holatlari kerakligicha to'la va yuz berganiga haqiqatdan monand tarzda aniqlangan bo'lsa, asosli deb e'tirof etiladi.

Hukm aybdorga nisbatan jazo yoki boshqa ta'sir chorasi u sodir etgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va uning shaxsi e'tiborga olinib tayinlangan bo'lsa, aybsiz shaxs esa oqlangan va rehabilitatsiya etilgan bo'sa, adolatli deb e'tirof etiladi.

Sud hukm chiqarish vaqtida alohida xonada (maslahatxonada) quyidagi masalarni hal qiladi:

- 1) Sudlanuvchi aybli deb topilgan qilmish haqiqatda sodir etilganmi;
- 2) Bu qilmish jinoyat deb hisoblanadimi va u jinoyat kodeksining qaysi moddasida nazarda tutilgan;
- 3) Bu qilmishni sudlanuvchi sodir etganmi;
- 4) Sudlanuvchi jinoyat sodir etishda ayblimi va aybli bo'lsa, uning aybi qanday shaklda;
- 5) sudlanuvchining javobgarligini yengillashtiradigan va og'irlashtiradigan holatlar bormi;
- 6) sudlanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazolanishi kerakmi;
- 7) sudlanuvchiga qanday jazo tayinlanishi lozim va u shu jazoni o'tashi kerakmi;
- 8) sudlanuvchini Jinoyat kodeksining 34-moddasiga muvofiq o'ta xavfli retsdivist deb topish lozimmi;
- 9) ozodlikdan mahrum qilingan mahkum jazoni qanday tartibli koloniyada o'tashi lozim va jazo muddatining bir qismini turmada o'tashi kerakmi;
- 10) fuqaroviy da'vo qanoatlantirilishi kerakmi, bu da'vo kimning foydasiga va qancha miqdorda qanoatlantirilishi lozim, shuningdek fuqaroviy da'vo qo'zg'atilmagan bo'lsa, jinoyat tufayli keltirilgan mulkiy zarar undirilishi kerakmi, sudlanuvchilar sheriklik yoki hissadorlik tartibida javobgarlikka tortilishlari lozimmi;
- 11) fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun xatlangan mol-mulkni nima qilish kerak;
- 12) ashyoviy dalillarni nima qilish kerak;
- 13) protsess chiqimlarini kimning zimmasiga va qancha miqdorda yuklash kerak;
- 14) sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini tanlash, ilgargisini qoldirish, o'zgartirish yoki bekor qilish kerakmi;
- 15) sudlanuvchiga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash yoxud uning ustidan homiylik belgilash zarurmi;
- 16) sudlanuvchiga nisbatan lavozimidan chetlashtirish tarzidagi protsessual majburlov chorasini bekor qilish kerakmi;

Sudlanuvchi bir necha jinoyatni sodir etganlikda ayblanayotgan bo'lsa, sud ushbu moddaning 1 — 8-bandlarida nazarda tutilgan masalalarni har bir jinoyat bo'yicha alohida-alohida hal qiladi.

Jinoyatni sodir etishda bir necha sudlanuvchi ayblanayotgan bo'lsa, sud ushbu moddada ko'rsatilgan masalalarni har bir sudlanuvchiga nisbatan alohida-alohida hal qiladi.

Ushbu moddaning 15-bandida nazarda tutilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ekspertning tegishli xulosasi mavjud bo'lgandagina qo'llanilishi mumkin.

Hukm qilish aybdorga jazo tayinlashda ham, qonunda mavjud bo'lgan asoslarga ko'ra, jazodan ozod qilishda ham mavjud bo'lishi mumkin. Sudlanganlikning kelib chiqishi esa, jazoning muayyan turi va miqdorini tayinlagan holda ayblov hukmini chiqarish bilan bog'liq.

Shu asosda Jinoyat Protsessual Kodeksining 462-moddasiga asosan "Sud ayblov yoki oqlov hukmi chiqarishi mumkin. Sudlanuvchiga nisbatan qanday turda hukm chiqarish masalasini hal qilish vaqtida sud ushbu Kodeksning 23-moddasida nazarda tutilgan aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi talablariga amal qilishi shart" deb belgilab qo'yilgan.

Ayblov hukmi taxminlarga asoslangan bo'lishi mumkin emas va faqat sudlanuvchining jinoyat sodir etishda aybli ekanligi sud muhokamasi davomida isbot qilingan taqdirdagina chiqariladi. Ayblov hukmiga jinoyat sodir etilishining ish bo'yicha barcha mumkin bo'lgan holatlarini tekshirish, ish materiallarida ma'lum bo'lib qolgan barcha kam-ko'stni to'ldirish, yuzaga kelgan hamma shubha va qarama-qarshiliklarga barham berish natijasida yig'ilgan ishonchli dalillargina asos qilib olinishi lozim.

Sud quyidagi hollarda jazodan ozod qilib, ayblov hukmini chiqaradi, basharti:

1) mazkur hukm bilan sudlanuvchiga tayinlangan jazoni qo'llashdan ozod qiluvchi amnistiya akti e'lon qilingan bo'lsa;

2) shaxsning hukm chiqquniga qadar qamoqda yoki uy qamog'ida bo'lgan vaqti Jinoyat kodeksining 62-moddasida nazarda tutilgan ushlab turishni, qamoqqa olishni yoki uy qamog'ini hisobga olish qoidalarini nazarda tutib, sud tomonidan tayinlangan jazo chorasiga teng yoxud bu choradan ortiq bo'lsa;

Sud quyidagi hollarda jazo tayinlamasdan ayblov hukmini chiqaradi, basharti:

1) mahkum sodir etgan jinoyat uchun jazo tayinlashni istisno etadigan amnistiya akti e'lon qilingan bo'lsa;

2) mazkur jinoyat uchun ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish muddati o'tib ketgan bo'lsa;

3) hukm chiqariladigan vaqtga kelib, qilmish ijtimoiy xavfliligini yo'qotsa yoki uni sodir etgan shaxs ijtimoiy xavfli bo'lmay qolsa;

4) mahkumning tuzalishiga jamoat birlashmalari va jamoalar tomonidan qo'llaniladigan jamoat ta'sir choralari yoki ma'muriy jazo choralari ko'rish yo'li bilan erishish mumkin bo'lsa;

5) hukm chiqarish vaqtigacha sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

6) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 71-moddasiga muvofiq shaxsni o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli jazodan ozod qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa.

Oqlov hukmi quyidagi hollarda chiqariladi, basharti:

1) jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) sudlanuvchi sodir etgan qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmasa;

3) jinoyat sodir etilishiga sudlanuvchi daxldor bo'lmasa.

Jinoyat boshqa shaxs tomonidan sodir etilganligi aniqlansa, shuningdek sudlanuvchiga qo'yilgan ayblov ish holatlari batafsil tekshirilgandan keyin ishonarli tarzda o'z tasdig'ini topmasa, sud ushbu modda birinchi qismining 3-bandida nazarda tutilgan asosga ko'ra sudlanuvchini oqlaydi.

Jinoyat kodeksining 77- moddaniing 2-qismiga ko'ra, jazo tayinlangan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab shaxs sudlangan, deb xisoblanadi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan, deb hisoblanadi.

Jinoyat-prosessual kodeksiga muvofiq, hukm uning ustidan apellyasiya shikoyati berish va protest bildirish muddati o'tishi bilan qonuniy kuchga kiradi. Apellyasiya shikoyati berilgan yoki protest bildirilgan taqdirda hukm, agar u bekor qilinmagan bo'lsa, ishni yuqori sud ko'rib chiqqan kuni qonuniy kuchga kiradi. Maxkumlar ikki va undan ortiq bo'lgan taqdirda, basharti shulardan loaqal biriga nisbatan hukm ustidan shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan bo'lsa, yuqori sud ishni kurib chiqquniga qadar maxkumlarning hammasiga nisbatan hukm qonuniy kuchga kirmay turadi.

Shunday qilib, shaxs faqat jazoni o'tab bo'lganidan keyingina emas, balki uni ijro etish davomida ham sudlangan hisoblanadi va bu sud tomonidan inobatga olinishi lozim. Bunda, shaxsga nisbatan dastlabki tergov vaqtida ham, hukm e'lon qilinganidan keyin ham shaxsga nisbatan tanlangan ehtiyot chorasining ahamiyati yo'q - ushbu vaqt davomida shaxs sudlangan, deb topilishi mumkin emas.

Shaxsni jazodan ozod qilish, hatto jazo o'rniga unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi yoxud, agarda mahkum voyaga etmagan bo'lsa, tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan hollarda ham uning sudlanganligini keltirib chiqarmaydi. (JKning 87, 88-moddalari).

Jinoyat kodeksining 77-moddasining uchinchi qismi belgilaydiki, sudlanganlik ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda va shaxs yangi jinoyat sodir etgandagina huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsning sudlanganligi ham umumhuquqiy, ham jinoyat huquqiy ahamiyatga ega.

Jinoyat sodir etganlikda hukm qilingan shaxs huquqiy holatining umumhuquqiy ahamiyati uning O'zbekiston Respublikasi jinoyat to'g'risidagi qonunchiligini tashkil etmaydigan normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlanganligi va ular jinoyat-huquqiy ma'noda ahamiyatga ega emasligi bilan tavsiflanadi. Xususan, sudlanganlikning umumhuquqiy ahamiyati shaxsning sudlanganligi uning rasmiy organlarga tugatilmagan yoki olib tashlanmagan sudlanganlik mavjudligi to'g'risida ma'lum qilish majburiyatida, ma'lum bir mansabni egallash yoki ayrim faoliyat bilan shug'ullanishdagi cheklovlarda namoyon bo'ladi (masalan, advokatlik faoliyatini amalga oshirishni cheklash).

Sudlanganlikning faqat jinoyat-huquqiy ahamiyati ko'zda tutilib, u quyidagilardan iborat:

- shaxsda sudlanganlik holatining mavjudligi xavfli va o'ta xavfli residivist, deb topilishiga ta'sir etadi (JKning 34-moddasi);

- sudlanganlik shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga to'sqinlik qiladi. Xususan, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan (JKning 66-moddasi),

- yarashilganligi munosabati bilan (JKning 661-moddasi) yoki voyaga yetmagan shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganda majburlov choralari qo'llagan holda (JKning 87-moddasi) jinoiy javobgarlikdan ozod qilish sudlangan shaxsga nisbatan qo'llanilishiga yo'l ko'yilmaydi, chunki barcha ko'rsatilgan holatlarda jinoyat shaxs tomonidan birinchi marta sodir etilgan bo'lishi shart;

- sudlanganlik qilmishni kvalifikasiya qilishga ta'sir ko'rsatadi. (JKning 140-moddasi 3-kismi «b» bandi);

- ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi (residiv) jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida e'tirof etiladi (JKning 56-moddasi 1-kismi «n» bandi);

— shaxsda sudlanganlik xolati mavjud bo'lishi uni jazodan ozod qilishga ta'sir qiladi. Xususan, sudlangan shaxsga nisbatan o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish qo'llanilmaydi (JKning 71-moddasi 1-kismi), shuningdek, shartli hukm qilishning (JKning 72-moddasi 7-kismi), jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning (JKning 73-moddasi), jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning (JKning 74-moddasi) qattiqroq talablari o'rnatilgan. Xuddi shunday, mazkur cheklovlar voyaga etmagan shaxslarga xam tatbiq etiladi (JKning 89, 90-moddalari);

- sudlanganlik ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda jazoni ijro etish muassasasi turini aniqlashga ta'sir qiladi (JKning 50-moddasi).

Sudlanganlikning jinoyat-huquqiy ahamiyati shaxs yangi jinoyat sodir etgandagina vujudga keladi. Boshqacha aytganda, shaxsning sudlanganligi sud tomonidan, u sudlangan, deb topilgan davrda, ya'ni hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan uning tugatilishi yoki olib tashlangungacha bo'lgan davrdan keyin jinoyat sodir etgan hollarda hisobga olinadi.

Jinoyat kodeksining 77-moddasining to'rtinchi qismiga asosan sudlanganlik muddatining o'tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi munosabati bilan uning barcha huquqiy oqibatlari bekor bo'ladi. Sudlanganlik holati bekor bo'lishi bilan uning barcha jinoyat-huquqiy oqibatlari, shuningdek, umumhuquqiy tusdagi aksariyat oqibatlar bekor bo'ladi.

Sudlanganlik holati bekor bo'lgan taqdirda, shaxs tomonidan oldin jinoyat sodir etilishi fakti, agarda ushbu jinoyat bo'yicha sudlanganlik tugallangan yoki olib tashlangan bo'lsa, yangi jinoyat sodir etishda qilmishni kvalifikasiya qilish uchun, jazoni og'irlashtiruvchi holat borligini yoki jinoyatlarning residivi mavjudligini qayd etish uchun hech qanaqa ahamiyatga ega emas.

Jinoyat kodeksining 77-moddasining beshinchi qismiga ko'ra, jazoni o'tagan, ammo qonunning o'zgarishi bilan bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmaydigan taqdirda, shuningdek sodir qilingan jinoyat uchun tayinlangan jazoning o'tab bo'linishi bilan sudlanganlik holatining tugallanishi belgilangan bo'lsa, shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.

Sudlanganlik holatining tugallanishi deganda, muayyan muddatlarning o'tishi bilan mazkur masalaga oid sudning maxsus qarori qabul qilinmasdan barcha huquqiy oqibatlar va cheklanishlarning tugallanishi tushuniladi.

Sudlanganlik holatining bekor bo'lishini tasdiqlash uchun qandaydir maxsus hujjatlar talab qilinmaydi.

Shaxsning sudlanganlik holati quyidagi paytlarda tugallanadi:

- a) shartli hukm qilinganlarga nisbatan – sinov muddati tugagan kundan boshlab;
- b) majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach;
- v) jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin bir yil o'tgach;

g) ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin – ikki yil o'tgach;

d) besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – to'rt yil o'tgach;

e) besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – yetti yil o'tgach;

j) o'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin – o'n yil o'tgach.

Shaxs sudlanganlik muddati o'tmasidan yangi jinoyat sodir qilsa, bu muddatning o'tishi uziladi. Ilgari sudlangan shaxs tomonidan yangi jinoyat sodir etilganda sudlanganlikning tugatilganligi masalasi sharhlanayotgan modda va Jinoyat kodeksining 80-moddasida ko'rsatilgan qoidalar asosida sud-tergov organlari tomonidan hal qilinadi.

Ushbu modda qoidalariga muvofiq, sudlanganlikning tugatilishi, sudlanganlik huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan tegishli muddatlarning o'tishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu muddatlarning davomiyligi tayinlangan jazo, uning turi, hajmi va shartli yoki shartli emasligiga bog'liq bo'ladi.

Shaxs shartli hukm qilinganda, sudlanganlik muddati bir yildan uch yilgacha bo'lgan sinov muddati o'tganidan so'ng tugallangan hisoblanadi. Agar shartli hukm qilingan shaxsga nisbatan qo'shimcha jazo chorasi qo'llanilgan bo'lsa, bu muddat sudlanganlik muddatidan ko'p bo'lsa, sudlanganlik qo'shimcha jazo muddati tugagach, tamom bo'lgan hisoblanadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, sudlanganlik muddatining tugashini hisoblashda, sudlangan shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, ijro etilmagan muddat hamda ijroning to'xtaganlik muddati ham inobatga olinadi. Bunday holda sud ayblov hukmining ijro etish muddatiga ham e'tibor berishi kerak. Chunki shaxsning amalda jazoni o'tamaganligi va muddatning o'tishi shaxs sudlangan deb hisoblanishining oldini oladi.

O'n besh yil va undan ortiq muddatga hukm qilingan shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanidan so'ng, shuningdek, o'ta xavfli retsivist deb topilgan shaxslarga nisbatan sudlanganlik holati tugallanmaydi. Ularga nisbatan sudlanganlik muddati Jinoyat kodeksining 79-moddasi 2-qismiga ko'ra olib tashlanishi mumkin.

Sudlanganlikning olib tashlanishi – bu qonunda ko'rsatilgan sudlanganlikning tugallanishi muddati o'tmasdan bekor qilinishidir.

Sudlanganlikning olib tashlanishi, sud tomonidan uning ajrimi asosida yoxud tegishli afv etish yoki amnistiya akti asosida amalga oshiriladi. Bunda shuni inobatga olish kerakki, faqat ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan sudlanganlik olib tashlanishi mumkin. Jinoyat kodeksining 13-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Jinoyat kodeksi 79- moddaning birinchi qismi o'n besh yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan sudlanganlikning muddatidan ilgari tugatilishi masalasini hal etadi. Qonunga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan shaxslarga nisbatan muddatidan ilgari sudlanganlikning tugatilishi, faqat shaxsga nisbatan jazoni o'tab bo'lgach, ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilmaganligi sharti bilangina yo'l qo'yiladi. Bunda ko'rsatilgan choralarni qo'llash asosi ahamiyatsizdir, ular mavjudligining o'zi sudlanganlikni olib tashlashga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, mazkur choralarni tayinlashda, sud, ular o'tgandan keyin shaxsga ma'muriy jazo yoki ta'sir choralari qo'llanilgan deb

hisoblanmaydigan muddatlardan kelib chiqishi kerak. Shuni e'tiborda tutish kerakki, sudlanganlikning muddatidan ilgari tugatilishi, faqat Jinoyat kodeksining 78-moddasida ko'rsatilgan muddatning kamida yarmi o'talgandan so'ng qo'llanilishi mumkin. Qonunning mazkur talabi imperativ xarakterga ega va u so'zsiz bajarilishi kerak.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi masala sudya tomonidan jazoni o'tab bo'lgan shaxsning, uning himoyachisi yoki qonuniy vakilining yoxud jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasiga asosan ko'rib chiqiladi.

Sudlanganlikni olib tashlash to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilayotganda iltimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsning sud majlisida qatnashishi shart bo'ladi. U himoyaga olish huquqi bilan ta'minlanadi. Sudlanganlikni olib tashlash rad etilsa, sudyaga bu masalaga doir qayta iltimosnoma rad etilgani haqida ajrim chiqqan kundan boshlab kamida bir yil o'tgandan keyin kiritilishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 79-moddasining ikkinchi qismiga asosan, ushbu Kodeksning chet el valyutasini yashirish (178-moddasi), soxta tadbirkorlik (179-modda), soxta bankrotlik (180-modda), bankrotlikni yashirish (181-modda), qasddan bankrotlikka olib kelish (1811-modda), bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish (182-modda), raqobat to'g'risidagi qonunchilikni va tabiiy monopoliyalar to'g'risidagi qonunchilikni buzish (183-modda), soliqlar yoki yig'implarni to'lashdan bo'yin tovlash (184-modda), qimmatbaho metallar yoki toshlarni topshirish qoidalarini buzish (185-modda), Rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish (1851 –modda), Rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlarini tayyorlash, olish, ulardan foydalanish hamda ularni o'tkazish qoidalarini buzish (1852-modda), savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish (189-modda), Faoliyat bilan litsenziyasiz yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatsiz yoxud xabarnoma yubormasdan shug'ullanish (190-modda), qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanish (191-modda), raqobatchini obro'sizlantirish (192-modda) moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning sudlanganligi ular davlatga juda ko'p zarar yetkazmaganda, ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida to'rt dan bir qismi o'tganidan keyin sud tomonidan olib tashlanishi mumkin.

Jinoyat kodeksi 79-moddasining uchinchi qismida o'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanlar hamda o'ta xavfli retsdivistlarning sudlanganligini olib tashlash masalasi bayon etilgan. O'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tagan shaxslar deganda, uzluksiz bir yoki bir necha jinoyatlar (ulardan loqal bittasi og'ir jinoyat bo'lsa) sodir etgan shaxslar tushuniladi.

Ushbu toifa shaxslarga nisbatan sudlanganlikni olib tashlash masalasini muhokama qilish uchun ikki asos bo'lishi lozim. Bular:

- jazoni o'tagandan so'ng o'n besh yillik muddatning o'tishi;
- shu muddat ichida yangi jinoyat sodir etmaslik.

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, o'ta xavfli retsdivist deb topilgan shaxsning sudlanganligi ushbu moddada ko'rsatilgan tartibda, o'talgan jazo muddati, barcha jazolarning muddatidan qat'i nazar, olib tashlanishi kerak.

JK 79-moddasi 3-qismi qoidalarida qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega bo'lib, ushbu qonun kuchga kirgunga qadar, tegishli jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarga, shu jumladan, jazoni o'tayotgan yoki o'tab bo'lgan shaxslarning, agar ular hali sudlangan hisoblanishsa, sudlanganligi olib tashlanishi mumkinligi o'rnatilgan.

Sudlanganlikning olib tashlanishi sud tomonidan ajrim chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq, sudlanganlik amnistiya akti yoki afv etish asosida olib tashlanishi mumkin.

Qonun sudlanganlik holati barham topishining faqat ikki usulini — uning tugallanishi va olib tashlanishini nazarda tutadi (JK 77-moddasi to'rtinchi qismi).

Sudlanganlik holati tugallanishi shaxsning sudlanganligi fakti bilan bog'liq barcha oqibatlarining jazo turi va muddatidan kelib chiqqan holda JK 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tganligi natijasida avtomatik tarzda (o'z-o'zidan) barham topishini anglatadi. Bunday hollarda sudlanganligi tugallangan shaxs, uning vorisi, qonuniy vakili yoki advokati iltimosiga ko'ra hukm chiqargan sud tomonidan sudlanganlik holati mavjud emasligi faktini tasdiqlovchi ma'lumotnoma beriladi. Buning uchun manfaatdor shaxs tomonidan sudga taqdim etilgan ichki ishlar organlari axborot markazi ma'lumotnomasi va jazo o'talغانligi (ijro etilganligi) faktini tasdiqlovchi hujjatlar asos bo'ladi.

Sudlanganlikning olib tashlanishi undan kelib chiqqan huquqiy oqibatlar sudlanganlik holati barham topishi uchun qonunda belgilangan muddatlar o'tguniga qadar sud qaroriga asosan tugatilishini anglatadi. Sudlanganlik olib tashlanishi uchun shaxsning jazoni o'tab chiqqandan keyingi benuqson xulq-atvori (unga nisbatan ma'muriy jazo yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilmaganligi), jamoat birlashmasi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, jamoa yoki shaxsning o'zi JK 79-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan muddatlar o'tgandan so'ng bergan iltimosnomasi asos bo'lishi mumkin. Qonun sud tartibidan tashqari amnistiya akti yoki afv etish orqali sudlanganlikni olib tashlash imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Sudlanganlik holatining tugallanishi va qonunda belgilangan tartibda olib tashlanishi jinoyatlar majmui, takroranligini va retsidiv jinoyatni istisno etuvchi holat hisoblanadi.

Sudlanganlik holati tugallangan yoki olib tashlangan paytdan boshlab shaxs sudlanmagan hisoblanib, ushbu shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligi fakti va uning uchun sudlanganlik bilan bog'liq barcha huquqiy oqibatlar qat'iy va so'zsiz bekor bo'ladi. Sudlar, sudlanganlik holati olib tashlanishini shaxsni rehabilitatsiya qilishdan farqlashlari lozim. Shaxs rehabilitatsiya qilinganda, davlat u jinoyat sodir etganlikda xato aybdor deb topilganligini tan oladi. Sudlanganlik holati olib tashlanganda shaxs tomonidan jinoyat sodir etilganligi fakti inkor etilmay, faqat jinoiy javobgarlikka tortish oqibatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Shuni qo'shimcha qilish kerakki, rehabilitatsiya uchun asoslar Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra:

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va rehabilitatsiya etilishi lozim:

1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;

3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

Jinoyat kodeksi 13-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillash tiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga ega.

Shu munosabat bilan, agar surishtiruv, dastlabki tergov olib borilayotgan, ish sudda ko'rilayotgan yoki shaxs jazo o'tayotgan davrda uning tomonidan sodir etilgan qilmish jinoiyligini bekor qiladigan qonun qabul qilinsa, bunday holda shaxs jinoiy javobgarlik va jazodan ozod qilinadi va qilmish jinoiyligini bekor qilgan qonun kuchga kirgan paytdan sudlanmagan hisoblanadi. Mazkur qoida jazoni o'tab bo'lgan, biroq sudlanganlik holatida bo'lgan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I. Qonun va qonunosti hujjatlari:

1. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi (2023) www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (2023 yil 1 maygacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan) www.lex.uz

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (2023 yil 1 maygacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan) www.lex.uz

4. "Sudlanganlik holatining olib tashlanishi va tugallanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy Sud Plenumi Qarori, 18.09.2015 yil 13-son, www.lex.uz

II. O'quv va ilmiy adabiyotlar:

1. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 bet.

2. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) o'quv qo'llanma. Ochilov X.R.- Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. - 176 bet.

3. S. Niyozova. Sudlanganlikni olib tashlash huquqingiz bor, Risola. - T.: TDYU nashriyoti, 2021. - 25 b.

III. Internet saytlari:

1. Sudlanganlik qanday olib tashlanadi? www.civil.uz

2. Sudlanganlik institutining huquqiy tartibga solish usuli. Sudlanganlik institutini qo'llash va olib tashlashning dolzarb masalalari. www.avtozvuk174.uz